

O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH USULLARI

Rirmatova Mashhura Salimova

*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani MMTBga qarashli 77-umumiy o'rta ta'lim
maktabi psixologi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning samarali usullari yoritilgan. Jumladan, maktabda kasbiy yo'naltirish ishlarini tashkil etish, o'quvchilar qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash, amaliy mashg'ulotlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar, kasblar yarmarkasi va interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ota-onalar, pedagoglar va psixologlar hamkorligida olib boriladigan kasbiy maslahat ishlari orqali o'quvchilarning ongli ravishda kasb tanlashiga yo'l ochilishi asoslab berilgan. Maqolada kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, ta'lim muassasalarida ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *kasb-hunarga yo'naltirish, kasb tanlash, o'quvchi qiziqishi, mehnat tarbiyasi, psixologik testlar, kasbiy maslahat, interaktiv metodlar, ota-ona hamkorligi, ta'lim tizimi, shaxsiy rivojlanish.*

Bugungi kunda mutaxassis kadrlarni tayyotlash, ta'lim va bilim berish tizimi, hayotimizda, jamiyatimizda bo'layotgan islohot, yangilanish jaryonlari talablari bilan yaqindan bog'lanmaganligi har tomonlama sezilmoqda. O'quvchi yoshlarni kasb hunarga yo'naltirish jarayoni tashkiliy jihatdan ko'proq pedagogik harakterga ega bo'lsada, u mazmunan psixologik mohiyatga ega. Bu yo'nalish pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, bu jarayon oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanib, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarigacha davom ettiriladi. O'z vaqtida kasbga yo'naltirish o'quvchining hayotdagi o'rnini yaxshiroq egallashida muhimdir. Psixologik diagnostika va pedagogik tashxis ishlari ham ushbu soha bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida endilikda bizga faqatgina har tomonlama rivojlangan bola bo'libgina qolmasdan, balki har tomonlama sog'lom, aqlan rivojlangan bolani tarbiyalashda va unga bilim berish va kamolga yetkazishda har bir insonning asosiy burchi ekanligi uqtiriladi. O'qituvchining mahorati o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini topishlarida, kerakli mutaxassis, jamiyatning intellektual salohiyatli kadrlari bo'lib yetishishlarida, ularning kasbiy madaniyatini shakllantirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy va kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyaga ega bo'lishlari, shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishlari, o'z ustilarida doimiy ishlashlari, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnikani, pedagogik mahorat namda insonparvarlikni takomillashtirishlari talab etiladi. Kasb-hunar tanlashda maqsadning to'g'ri qo'yilishi yartm g'alabadir. Bu g'alabani yuzaga chiqarishdagi qo'llanilgan vositalar, metodlar samaraliligi, sinovdan o'tgan bo'lishi ayni muddaodir. Kasbga old ma'lumotlarni tahlil qilish, natijalarni solishtirish, birlashtirish, o'quvchining kasbiy axborot bazasini boy'itishda qo'llanilgan filmlar, innovatsion yangiliklar vaziyatni baholay olishga yordam beradi. Shuningdek, tasavvur, qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat, bilim, ko'nikma, odatlar bilan uzviy bog'laydi. Hozirgi kunda kasb-hunarga bag'ishlangan targ'ibot-tashviqot ishlari, kasbiy bilim va ta'limga yo'naltirilib, o'quvchilarning fikrlarini, ota-onalarning hamkorligini seminar treninglar, ma'ruzalar va suhbatlar uyushtirish, kasb-hunarning ijtimoiy ahamiyatini yoritish, anjuman, radio va teleko'rsatuvlarda chiqishlar, qiziqish va havaslarini orttirish individual muloqotlarni uyushtirishdan, mazmunli tashkil etishdan iboratdir. Bunda psixologik xizmatni keng tatbiq qilish, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish

Kasbiy o'zlikni anglash, kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining tarkibiga singib ketgan component sifatida maqsadga yo'naltiruvchi, kuchaytiruvchi, korreksiya qiluvchi, yani oqimi hususiyatlarini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. O'quvchilarni ongli kasb-hunar tanlashiga ta'sir etuvchi omillar-uning individual –tipologik hususiyatlari yoki ichki

imkoniyatlari va ehtiyojlari hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasbiy o'zlikni anglashning nomoyonligi ichki pozitsiyaning shakllanish qonunyatiga asoslanadi. Ichki pozitsiya o'z-o'zidan emas, balki sub'ektning tashqi muhit bilan uzluksiz aloqada bo'lishi va tashqi muhitning unga ta'sir etishi jarayonida shakllanadi. Quyidagi jummalarni to'ldiring va ularni daftarga yozing.

1. Odamlar ... Uchun ishlaydi
2. Har qanday faoliyatda..... Muhim ...
3. Mehnat faoliyatini tanlashda insonlar ko'pincha Tayanadilar
4. Mehnat faoliyatini tanlashda insonlar ko'pincha E'tiborga olishmaydi
5. Mening kelajagim menga ...
6. Men ushbu kasbiy faoliyatni tanladim, chunki ...
7. Tanlangan ish mendan Talab qiladi ...
8. Nazarimda, mening kasbim Yordam beradi
9. Mening kasbim menga Imkon bermaydi deb o'ylayman
10. Kasbim menga Imkoniyat beradi ...
11. Mening kasbim Ta'minlaydi
12. Kasbiy faoliyatni insonlar

Uchun ko'pincha tanlashad "Maqsadga erishish" treningi Ko'zingizni yuming, gavgangizni bushashtirib o'tiring. O'z maqsadingizga diqqat bilan qarang. Tasavvur qiling, maqsadingizga erishdingiz. Masalan, ish boshladingiz va uni muvaffaqiyatli bajaryapsiz. O'z maqsadingiz manzarasini aniqroq tasavvur qiling.

Ko'rayotgan narsalaringizni anglab ko'ring - ranglar, narsalar, odamlar, xonalar, xonadagi shart-sharoit va h.k. Atrofdagi barcha narsalar - tovushlar, ovozlar, gap so'zlarni eshiting. Atrofdagi narsalarni ushlab ko'ring, ularni his qiling. Hayolan o'z maqsadingizga tularoq etish mumkinligini tasavvur qiling, keyin maqsadingizga erishish manzarasini ko'rib, o'zingizga ayting: "Men albatta bu maqsadga erishaman. Maqsadimga erishish uchun xamma narsani qilaman. Bu amalga oshadigan maqsad, fakat unga erishish uchun harakat qilish zarur!". Endi, nihoyat tasavvur qilishdan to'xtab, ongli hayotga erishish uchun mutloq ishonch

va mustahkam e'tiqod bilan qayting. Bu sizning holatingizda o'zoq vaqt saqlanib qoladi va maqsadingizga erishish uchun erdam beradi. SHunday qilib, o'z muammolaringizning hal qilish yo'lini topdingiz. Bu muammolarga turli tomondan qarab ko'rdingiz va uni hal qilish mumkinligini his qildingiz. Eng muhimi muammolarga nisbatan munosabatingiz o'zgardi. Muammolaringizni hal qilishda sizga quyidagi mulohazalar yordam beradi. - Insonda doimo muammolar bo'ladi. Hayotda muammolarning bo'lishi muqarrar. - Bir muammoni hal qilgach, ikkinchisi tug'iladi. - Birinchi muammodan keyin inson albatta ikkinchisiga duch keladi. - Har kanday chiqarilgan qaror - bugun to'g'ri bo'lsa, ertaga noto'g'ri tuyuladi. - Muammoni hal qilish vaqti bor. SHuning uchun insonga sabr toqat kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova N. *Kasbga yo'naltirish asoslari*. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Rasulov I. *Mehnat tarbiyasi va kasbiy yo'naltirish*. – Samarqand: Zarafshon, 2021.
3. Ortiqova M., Karimov B. *Kasb tanlash psixologiyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Xolmatova D. *Kasbiy orientatsiya: nazariya va amaliyot*. – Buxoro: Ilm ziyo, 2022.
5. Yusupov M. *Zamonaviy kasblar va mehnat bozorining talablari*. – Andijon: Barkamol avlod, 2020.
6. Ginzberg E. *Occupational Choice: An Approach to a General Theory*. – New York: Columbia University Press, 1951.
7. Super D.E. *The Psychology of Careers*. – New York: Harper & Row, 1957.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar bandligini ta'minlash va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2022-yil.